

OZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

ADABIYOTSHUNOSLIK ASOSLARI

(ma'ruzalar matni)

40 soat

**Tuzuvchi-muallif: fil.fan.nomzodi, dotsent
M.M.Xoshimova**

QO'QON-2007

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**“ADABIYOTSHUNOSLIK ASOSLARI”
(ma'ruzalari matni 40 soat)**

KAFEDRA: O'zbek adabiyoti

Tuzuvchi: fil.fan.nomzodi, dotsent M.M.Hoshimova.

Taqrizchilar: FarDU fil.fan.nomzodi, dotsent Sayriddinov A

Fil.fan.nom.dotsent Abdukarimov M

Qo'qon-2007

So'z boshi

“Adabiyotshunoslik asoslari” (shu kungacha “Adabiyotshunoslikka kirish” fani deb yurutilar edi) kursi adabiyotshunoslik va uning tarkibiy qismlari haqida umumiy ma'lumot beruvchi “Adabiyotshunoslik asoslari” kirishdan tashqari to'rt bo'limdan tashkil topgan. 1-bo'lim “Badiiy adabiyot haqida ma'lumot” deb nomlangan. Bu bo'limda “Badiiy obraz”, “Badiiy adabiyotda tipiklashtirish”, “Badiiy adabiyotning g'oyaviyligi” o'rganiladi. Badiiy adabiyotda dunyoqarash, g'oyaviylik, xalqchilik, milliylik va umuminsoniylik haqida ham fikr yuritiladi.

II bo'lim "Badiiy asar haqida ma'lumot" deb ataladi, bu bo'limda "Badiiy asar mazmuni va shakli mutanosibligi", "Badiiy asar mazmuni va g'oasi", "Badiiy asar syujeti va kompozitsiyasi", "Badiiy asar tili" kabi mavzularni o'z ichiga oladi.

III bo'lim filologiya fanlari doktori, professor T.Boboyevning fikricha, "Badiiy tasvir vositalari", she'riy san'atlar "She'r tuzilishi", "Barmoq tizimi", "Qofiya saboqlari", "Poetik ko'chimlar", "Poetik sintaksis" mavzularidan iborat.

Mazkur fanning IV bo'limi "Adabiy jarayon" deb yuritiladi. Ushbu bo'limda "Adabiy turlar va janrlar", "Ijodiy metod, adabiy oqimlar va yozuvchi uslubi" mavzulari o'rganiladi.

Umumiy adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T.O'zbekiston 1994.
2. Aristotel. Poetika. ("Poeziya san'ati haqida"). T. Adabiyot va san'at. 1980.
3. Ibn Sino Abu Ali. She'r san'ati. Salomon va Ibsol. T. Adabiyot va san'at. 1980.
4. Forobiy Abu Nasr. She'r san'ati. T. 1979.
5. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon (taniqli olim Izzat sulton nashrga tayyorlagan). Asarlar (15 tomlik). T. Badiiy adabiyot. 1967. 14-tom.
6. Alisher Navoiy. "Majolis un-nafois". Asarlar. T. 1962.
7. Alisher Navoiy. "Muhokamatul lug'atayin". Asarlar. T. 1962. 14-tom.
8. Ataullo Husayniy. "Bados ul-salom". (Alibek Rustamov tarjimasini). T. 1981.
9. Z.M. Bobur. "Muxtasar". T. "Fan". 1971.
10. Gegel. G.V.F. Estetika. (в 4-х томах). М, Искусство, Т.1., 1968, Т.2. 1969, Т.3. 1971. Т.4. 1973.
11. Belinskiy V.G., Tanlangan asarlar. T. O'zdnashr. 1955.
12. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. T. Adabiyot va san'at, 1977.
13. Bualo N. She'riy san'at. Adabiyot.
14. Baxtin M.M. Эстетика словесного творчества. М. Искусство. 1979.
15. Chernishevskiy N.G. Tanlangan adabiy -tanqidiy maqolalar. O'zdnashr. 1956.
16. Dobrolyubov N.A. Adabiy-tanqidiy maqolalar. T., O'zdnashr. 1959.
17. Badiiy ijod haqida (yozuvchilarning badiiy ijod haqidagi maqolalari va nutqlari to'plami). T. O'zdnashr. 1960.
18. Vohidov E. Shoiru, she'ru-shuur. T., Yosh gvardiya. 1987.
19. Oripov A. Ehtiyoj farzandi. Yosh gvardiya. 1988.
20. Cho'lpon. Adabiyot nadir. T., Cho'lpon. 1994.
21. Shukrullo. Javohirlar sandig'i. T., Yosh gvardiya. 1968.
22. Qahhor A. Yoshlar bilan suhbat. T., Yosh gvardiya. 1968.
23. Qodirov P. O'ylar, badialar. T., Yosh gvardiya. 1968.
24. Hoshimov O'. Notanish orol. T., Yosh gvardiya. 1990.
25. Qayumov L.P. Asr va nasr. "Tipiklik va badiiy mahorat". O'zdnashr. T., 1975.
26. O'. To'ychev. Aruz vazni. T., "Fan". 1989.
27. N. Shukurov. Uslublar va janrlar. T., G'. G'ulom. 1973.

DARSLIK VA QO'LLANMALAR:

1. Fitrat A. Adabiyot qoidolari. T., O'qituvchi. 1995.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T., O'qituvchi. 1980 (1986).
3. N. Hotamov, Sh. Holmatov, M. Mahmudov. Adabiyotshunoslikka kirish. T.. 1979.
4. Homidiy X., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminalari lug'ati. T. O'qituvchi. 1970.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish kursi bo'yicha o'quv metodik qo'llanma. T. O'qituvchi. 1979.
6. Boboyev T. Aruz vaznlarini o'rganish. T. RUMM, 1991.
7. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. (ikki qismlik) 2-qism "Nazorat" T. RUMM.
8. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. T. O'qituvchi. 1970.
9. Qo'shjonov M. Badiiyat qonuniyatlari. Saylanma (2 tomlik) 2-t. T. Adabiyot va san'at, 1983.

I mavzu: "Adabiyotshunoslik asoslari" kursiga kirish (4 soat).

Reja:

1. "Adabiyotshunoslik asoslari" fanining maqsadi, badiiy adabiyotni o'rganishning ahamiyati.
2. "Adabiyotshunoslik asoslari" fanining asosiy va yordamchi qismlari haqida ma'lumot.
3. Adabiyotshunoslik va xalq og'zaki ijodi.
4. Adabiyotshunoslik fanining Sharqda va G'arbiy Yevropa, Rossiyadagi taraqqiyoti.
5. "Adabiyotshunoslik asoslari" ning boshqa fanlar bilan munosabati.

A) Adabiyotshunoslik badiiy adabiyot haqida baxs yurituvchi fandır. Ma'lumki umumta'lim maktablarining V sinflaridan boshlab adabiyotshunoslikka oid ilk ma'lumotlar berila boradi.

"Adabiyot" so'zining mazmuni arab tilidan olingan bo'lib adab, odoblar ma'nosini beradi. Hozirgi davrda "Adabiyot" termini ikki ma'noda ishlatiladi. Keng qo'llanilganda "adbiyot" termini doirasiga turli mavzulardagi kitoblar, broshuralar, maqolalar, ya'ni ko'pchilik kishiga mo'ljallangan va nashr etilgan asarlar kiradi. Adabiyotlar o'z navbatida soxalarga bo'linadi. Masalan, qishloq xo'jaligiga oid asarlar "qishloq xo'jaligi adabiyoti", texnikaga oid asarlar - "texnika adabiyoti", tibbiyotga oid asarlar - "tibbiyot adabiyoti" va hokazo yuritiladi.

“Adabiyot” so’zi tor ma’noda qo’llanilganda faqat sof badiiy asarlar (romanlar, povest va hikoyalar, she’rlar-balladalar, poemalar, qasidalar, dramalar) ko’zda tutiladi.

“Adabiyotshunoslik asoslari” kursida “Adabiyot” atamasi asosan mutaxassislik (professional) ma’nosida qo’llanadi.

“Adabiyotshunoslik” termini ikki so’zdan iborat, uning tarkibida “shunos” qo’shimchasi fors-tojik tillaridan o’zbek tiliga kirgan va “biluvchi”, “o’r-ganuvchi” ma’nolarida ishlatiladi.

Badiiy adabiyotning mohiyati va xususiyatlari, uning rivojlanishining tarixiy qonuniyatlari va tahlil qilish metodikasi haqidagi fan adabiyotshunoslikka kirish fani deyiladi.

Hozirgi paytda jahonning bir necha xalqlari tillarida jumladan rus tilida literature («Литература») termini, o’zbek tilida “Adabiyot” atamasi qo’llaniladi. Bu ikkala atama hozirgi davrda bir ma’noni anglatadi.

Lekin bu ikki termin etimologiya jihatdan ham, qo’llanila boshlash tarixi e’tibori bilan ham bir-biridan ajralib turadi. Bu termin aslida lotincha so’zdan olingan bo’lib, «письменность» degan ma’noni anglatadi.

“Литература” termini jahon fanida XVIII-XIX asrlarda paydo bo’lgan.

Rossiyada esa XIX asrda paydo bo’ldi. Bu termini birinchi bo’lib olim V.G.Belinskiy ilmiy asoslagan va maxsus ma’noda qo’llagan. Rossiyada XIX asrning o’rtalarigacha ham tor va maxsus ma’nodagi «литература» o’rnida asosan «поэзия» termini ishlatilgan. Maxsus, tor va professional ma’nodagi “adabiyot” so’zi o’zbek adabiy tilida XX asrning boshlarida paydo bo’ldi.

XX asr boshlarida o’zbek ma’rifatparvarlari Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy kabilar o’z asarlarini “Adabiyot” deb ataganlar. XX asrning 20-yillarida “Adabiyot” atamasi badiiy asarlarga nisbatan ishlatila boshlandi.

Mirmuhsin Shermuhammedov, Abdurahmon Sa’diy va boshqalarning asarlarida “adabiyot” atamasi keng qo’llana bordi. O’zbek turkiylari (Elbek kabilar) 20-yillarda o’zbek matbuotida keng ishlatila boshlangan “adabiyot” atamasini “yozgich”, “yozuvchi” kabi so’zlar bilan almashtirishga harakat qilib ko’rdilar, lekin ular mag’lubiyatga uchradilar. Adabiyotshunoslikda “adabiyot” atamasi barqaror bo’lib qoldi.

B) Badiiy adabiyotni o’rganishning ahamiyati.

Badiiy adabiyotning o’zi nima va nima uchun biz uni sevib o’qimiz? Adabiyot san’atning bir turi, o’ so’z san’ati. M.Gorkiy aytganidek, badiiy adabiyot hayotni so’z orqali badiiy tasvirlaydi. Adabiyotda hayotning muhim voqea hodisalari, kishilarning tipik xislatlari aks etadi, hayotning taraqqiyoti ko’rsatiladi. Ijodkor hayotini, fakt va hodisalarni o’rganadi, ulardan kerakli xulosalarni obrazlar orqali o’z asarlarida ifodalaydi.

Badiiy adabiyot ayni choqda o’zgartirish qurol hamdir.

Adabiyot ustkurma sifatida jamiyat hayotiga, uning bazasiga kuchli ta’sir etadi. Buyuk yozuvchilar barcha davrlarda jamiyatning fikriy jihatdan olg’a intilishiga katta yordam beradilar. N. G.Chernishevskiyning ta’kidlashicha, adabiyot hayot darsligidir.

Badiiy adabiyot o'quvchining ongi-shuuriga kuchli ta'sir etadi. O'quvchi ijobiy qahramonlardan ko'p narsa o'rganadi. Ularga taqlid qiladi. Asardagi salbiy obrazlar kitobxon qalbida o'ziga nisbatan nafrat hislarini uyg'otadi, ana shunday kishilarga qarshi kurashga otlanamiz. Shuning uchun ham badiiy adabiyotni tarbiya quroli deb ataymiz.

Ijodkorlar tomonidan yaratilayotgan badiiy asarlar mohiyatini to'g'ri tushunish lozim, buning uchun esa adabiyot haqidagi, ya'ni adabiyotshunoslikni yaxshi bilishi lozim.

Yozuvchi A. Qahhor "Hayot xodisasidan badiiy to'qimaga" sarlavhali maqolasida o'z turmush tajribasi misolida qiziqarli qilib hikoya qiladi: "Biz odam" hikoyasi bo'yicha jinoiy ish qo'zg'agan qo'qonlik prokuror ustidan yozuvchi kuladi. ("Adabiyotimiz avtobiografiyasi", Adabiyot va san'at. T.1973,211-212-betlar).

Adabiyotshunoslikning diqqat markazida dastavval adabiyotning eng yaxshi namunalari, yaxshi klassik asarlar va klassik yozuvchilar ijodi turadi. Ana shunday asarlar va yozuvchilar ijodi tahlili davomida badiiy adabiyotning qonuniyatlari, spesifikasi kashf etiladi. Bundan tashqari adabiyotshunoslik tarixiy-adabiy jarayon – adabiyotning ma'lum bir davrda rivojlanish sharoiti va yo'llarini o'rganadi, tarixiy adabiy jarayonning qonuniyatlarini ochadi. Adabiyotshunoslik adabiyotni yaratuvchilarning adabiyot va tarixiy-adabiy jarayon haqida aytgan fikrlariga ham tayanadi.

Adabiyotshunoslikning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat: a)adabiy jarayonni,adabiyotning taraqqiyot tendensiyalari qonuniyatlarini o'rganishdan, adabiy harakatchanlikni yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan xulosalar chiqarishdan iborat. Adabiyotshunoslik badiiy adabiyotni zamon talablari asosida rivojlanib borishini talab qiladi, xalqqa xizmat qilishga da'vat etadi.

b) adabiyotshunoslik kitobxonning estetik didini shakllantirishga uni nazariy jihatdan qurollantirmog'i lozim. Adabiyotshunoslik adabiyot bilan hayot,yozuvchi bilan kitobxon o'rtasidagi aloqada bo'ladi. Ularni bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi.

II. Adabiyotshunoslik fanlari. 2 katta guruhga bo'linadi: a)asosiy adabiyot nazariyasi adabiyot tarixi va adabiy tanqid.Ushbu fanlar bir-biri bilan uzviy bog'liq va ularning har birining oldida ilmiy va amaliy vazifalar turadi.

a) Adabiyot nazariyasi voqelikni adabiyotda aks ettirish qonunlari va prinsiplari haqidagi ta'limotdir.Adabiyot nazariyasi badiiy asarning turlari va janrlarini tasviriy vositalarini o'rgatadigan fan. Adabiyot nazariyasi o'tmish va hozirgi zamon tarixiy adabiy jarayonning qonuniyatlarini o'rganadi, adabiyotni to'g'ri tushunish va rivojlantirish uchun kerakli hulosalarni chiqaradi.

Adabiyot nazariyasi adabiyotshunoslikning boshqa hamma qismlarining yutuqlari asosida yuzaga kelishi bilan birga, o'z ilmiy xulosalari bilan adabiyot tarixi fanini ham,adabiyot metologiyasini ham, adabiy tanqidni ham boyita borishi lozim.

Adabiyot nazariyasi birinchi navbatda realistik adabiyot, uning taraqqiyoti yo'llari,norealistik adabiy oqimlarga qarshi kurashi,binobarin realizm adabiyoti haqidagi ta'limotdir.Adabiyot nazariyasi badiiy adabiyotning obrazligini,

haqchilligini va tipiklashtirish qonuniyatlari va boshqalarni tekshiradi, adabiy asar komponentlari haqida baxs yuritadi.

b) Adabiyot tarixi mustaqil fan sifatida O'zbekistonda Oktyabr to'ntarilishidan keyin yaratildi. Xozirgi paytda o'zbek adabiyoti tarixi fani sohasida bir qator yutuqlar qo'lga kiritildi. O'zbek adabiyoti tarixi paydo bo'lishdan boshlab to hozirgi bosqichgacha bo'lgan taraqqiyot yo'li tushuniladi. Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan o'zbek adabiyoti tarixi metodologik jihatdan 2 davrga bo'lib o'rganiladi.

1) Qadimgi davrlardan XIX asr oxirlarigacha bo'lgan o'zbek adabiyoti

2) XX asr o'zbek adabiyoti tarixi.

O'zbek mumtoz adabiyotini ishlash bo'yicha V.Zohidov, A.Sa'diy, X.Zaripov, V.Abdullayev, G.Karimov, N.Mallayev, A.Qayumov, P.Shamsiyev, A.Hayitmetov, B.Valixojayev, E. Rustamov, A.Abdug'ofurov, X.Sulaymonov, X.Rasulov, M.Qodirova kabi o'zbek olimlari barkamol mehnat qildilar.

Oliy o'quv yurtlari uchun darsliklarni N.M.Mallayev ("O'zbek adabiyoti tarixi", 1-tom, 1962), V.A. Abdullayev (2-tom, 1964), G.K.Karimov (3-tom, 1966) yaratdilar va ilk bora jiddiy yutuqlar qo'lga kiritildi.

XX asr o'zbek adabiyoti tarixini o'rganish borasida ham jiddiy ishlar qilingan. Masalan, O'zFA Til va adabiyoti instituti olimlarining tashabbusi bilan "O'zbek sovet adabiyoti tarixi ocherki"ning 1-tomi 1961-yilda 2-tomi (1962-yilda nashr qilindi). O'zFA Til va adabiyot instituti olimlari 1967M.Gorkiy nomidagi jahon adabiyot instituti bilan hamkorlikda "История узбекский-советский литературе" nomli yirik ilmiy tadqiqotni nashr etdi. Bu asarning avtorlaridan I.Sultonov, Y.Sultonov, X.Yoqubov, Z.S.Kaderina, A.Hayitmatov, O.O.Sharafiddinovga Beruniy nomidagi Respublika davlat mukufoti berildi. Xozirgi kunda mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan "O'zbek sovet adabiyoti tarixi" (uch tom va to'rt kitobdan iborat)ga taklif etamiz. Bu davr o'zbek adabiyoti tarixi sohasida I.Sultonov, X.Yoqubov, L.Qayumov, S.Mamajonov, O.Sharafiddinov, Y.Sultonov, N.Rahimov, R.Muqimov, N.Shukurov, S.Mirzayev, T.Sobirov, P.Qodirov, A.Abrorov, I.Mirzayev, N.Karimov va boshqalar samarali ish olib bordilar.

3) Adabiy tanqid ma'lum bir yozuvchining ijodiga oid materiallarni to'playdi, yutuqlarini qayd qiladi, kamchiliklarini tanqid qiladi. Kamchiliklarini tanqid yo'llari bilan tuzatish yo'llarini ko'rsatib beradi. Tanqidchining asosiy ish uslubi shundan iborat bo'lishi kerakki, u ijodkorning mehnatiga hurmat va ehtiyotkorlik bilan yondashadi, talabchanlik nuqtai nazaridan baxo beradi. Ilg'or adabiy tanqid har doim yutuqlarini keng targ'ib etishga, o'quvchining estetik didi va zavqini oshirishga hamda san'atkorning komiliga xizmat qiladi V.G.Beliniskiy fikricha, haqqoniy tanqid hamisha jamiyatning o'y va andishalarini ifodalaydi.

v) Adabiyot paydo bo'lishi bilan tanqidiy qarashlar ham paydo bo'lgan. Obzor maqolalar paydo bo'la boshlaydi.

O'zbekistonda adabiy tanqidchilik XX asrda fan sifatida tashkil topdi. Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, Sadridin Ayniy, Otajon Hoshim, Sotti Husayn, Olim Sharafiddinov, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Uyg'un, Komil Yashin va boshqalar o'zbek tanqidchiligini boyishida hissa qo'shdilar. Hozirgi davrda respublikamizda I.Sulton, M.Qo'shjonov, L.Qayumov, S.Mamajonov, S.Mirvaliyev, S.Mirzayev, N.Shukurov, U. Normatov, B. Nazarov, O. Sharafiddinov, A. Xudoyberdiyev, A. Kuljonov, A.Rashidov, I.G'ofurov, A.Rasulov kabi yosh adabiyotchilar ham hozirgi kunimizda faol aralashib kelmoqdalar. Adabiyotshunoslikning bu 3 tarkibiy qismi har biri mustaqil ravishda bir-biri bilan uzviy bog'langandir. N.G.Chernishevskiy: "Adabiyot nazariyasiz adabiyot tarixining, adabiyot tarixisiz adabiyot nazariyasining bo'lishi mumkin emas" - degan edi.

Ushbu asosiy qismlardan tashqari adabiyotshunoslikning yordamchi predmetlari ham mavjud: istoriografiya, testologiya va adabiyot bibliografiyasidan iborat.

1) **Istoriografiya** – adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqidning barcha davrlardagi tarixiy taraqqiyotiga oid materiallar majmuidir. Istoriografiya - ma'lum bir problema yoki yozuvchiga oid bo'lgan materiallarni, to'playdi, o'rganadi.

Adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqid bo'yicha uning taraqqiyotini etaplarini ko'rsatib bershni o'rganadi.

2) **bibliografiya** - (yunoncha "biblio"-kitob va "grafika" yozuv, qayd etuvchi so'zlaridan olingan). Bibliografiya kitoblarning yozilgan, ko'chirilgan yoki bosib chiqarilgan vaqti, joyi ba'zan esa mazmuni, muallifiga oid ma'lumotlar yig'ilganda bu "badiiy adabiyot bibliografiyasi" bo'ladi; adabiyotshunoslikka oid ma'lumotlar "adabiyotshunoslik bibliografiyasi" ga kiradi.

Masalan, G'.G'ulom yaratgan asarlarning bibliografiyasi, yoki u haqda chiqqan tanqidiy maqolalarning bibliografiyasi. O'quvchini yozuvchining ijodi bilan tyanishtirishga bibliografiya adabiyoti muhim o'rinni egallaydi.

3) **Tekstologiya** (lotincha "textus" - asos, bog'lanish, yunoncha "logos"-so'z, fan) – tadqiq etish, sharxlash va ommabop yoki akademik nashrga tayyorlash maqsadida adabiyot va folklor asarlarni o'rganish, ularning yaratilish tarixini aniqlash va asr testi (yoki avtografga yaqinroq tekst) ni tiklash bilan shug'ullanadi.

Tekstologiya badiiy asarning u yoki bu nushasi yohud nashrning neshog'lik mukammal yoki nomukammaligini aniqlaydi. Badiiy asrning xususan, o'tmishdan meros bo'lib qolgan asarning asl tekstini tiklash – murakkab ilmiy ish.

Ma'lum bir yozuvchining ijodiga oid bo'lgan biror asarning turli nusxalarini chog'ishtirish yo'li bilan uning asl nushasini aniqlaydi.

Masalan, filologiya fanlari doktori, professor G.Karimov A.Navoiyning "Layli va Majnun" dostonining nushalarini chog'lashtirish yo'li bilan uning asl nushasini topgan. Adabiyotshunoslikning bu qismlari ham bir-biri bilan bog'langan.

III. Adabiyotshunoslik va xalq og'zaki ijodi.

Ma'lumki yozuv adabiyotigacha og'zaki adabiyot mavjud edi. Hayotni so'z orqali tushunish, ya'ni ertaklar, maqollar, ashulalar, dostonlar shaklida maydonga kelgan.

Xalq og'zaki ijodi inglizcha "folklor-xalq donoligi" termini bilan ifoda etiladi.

Folklor termini keng olinganda xalqning urf-odatlarini, marosimlarini, bu marosimlarini, bu marosimlarda aytiladigan qo'shiqlar, o'yinlarni, xatto xalq tabobatini o'z ichiga oladi. Og'zaki so'z asarlarida san'atkorlar xalqni umumlashtirganlar. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotida folklorning roli yozuv adabiyotining rolidan kam bo'lgan emas.

M.Gorkiy aytishicha? so'z san'atining boshi xalqning og'zaki ijodidir. XI asrda tuzilgan "Devoni lug'oti turk" asarida Mahmud Qoshg'ariy qadim davrdagi xalqlarning yaratgan qo'shiqlaridan, dostonlardan parchalarni keltiradi. Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida xalq og'zaki she'riyatidan ham parchalar kiritilgan.

Yirik rus folkloristlaridan biri professor V.I. Chicherovning fikricha, "Adabiyot va xalq poetik ijodi-xalqimizning yagona poetik san'atidir".

Shulardan xulosa qilish mumkinki folklorning adabiyotshunoslik ob'ekti bo'lishidan zarur ekanidan, folkloristikaning esa adabiyotshunoslik ilmiga juda yaqin ilm ekanini ko'rsatadi.

g) O'rta Osiyoda adabiy-tanqidiy fikrlar taraqqiyoti.

Buyuk yozuvchilar ko'pincha ilk adabiyotshunoslar sifatida maydonga chiqdilar.

"Shohnoma" ning muallifi Firdavsiy dunyoda birinchilardan bo'lib adabiyotning katta ijtimoiy rolini va adabiy qimmatini tasdiq etadi. Turkiy xalqlar adabiyotining eng ilk namunasi hisoblangan "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") dostonida shoirlar ijodining katta ijtimoiy ahamiyati tasdiq etiladi. Dostonning muallifi Yusuf Hos Xojib shoirlarni, ma'no dengizidan injular topib chiqaruvchilar, deb ataydi. A.Navoiy o'z "Xamsa" siga kirgan dostonlarining deyarli har birida maxsus "So'z ta'rifida" bob ochib, adabiyotga juda katta baxo beradi.

Uning badiiy asarlarining turli joylarida, adabiyot, shoir va kotibning jamiyatning ma'naviy hayotida tutgan roli haqida yuqori baholar uchraydi. Navoiy "Mahbub ul-qulub" ("Qalblarning sevgani") asarida shoirlarga maxsus bob bag'ishlab, Sharq poeziyasining bir qancha buyuk vakillari F.Attor, Jaloliddin Rumiy, Sa'diy, Xusrav Dehlaviy, Xofiz, Xoqoniy, Xoji Kamol, Jomiy kabilar ijodini ibrat namunasi tarzida e'zozlaydi. U adabiyotda mazmunsizlikka, fikriy sayozlikka, asosiz g'ururga qarshi chiqadi.

e) Adabiyotshunoslik fanining G'arbiy Evropa va Rossiyadagi taraqqiyoti.

Qadimgi yunon faylasufi Platon (eramizdan avvalgi 427-374-yillar) hayotni idrok etishda adabiyotning ijobiy roli borligini rad etdi, ammo adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati borligini tan oldi. Platon (Sharqda Aflotun) ta'rificha, adabiy asarlar, ular muallifining qanday o'rin tutishiga qarab, uch katta xilga bo'linishi mumkin: agar yozuvchi o'z nomidan gapirsa, bu "lirika" bo'ladi; agar yozuvchi o'zi voqelar tasvirida ishtirok etmay, ularni boshqalarni ishtiroki bilan tasvir etsa, bu

“drama” bo’ladi; agar asarda bu usullarning ikkalasi ham qo’llansa, u adabiyotning oily shakli “epos” bo’ladi.

Adabiyot haqidagi mustaqil, yaxlit ta’limotni dastlab boshlab bergan olim Aristotel hisoblanadi. 366-322-yillar orasida yozilgan “Poetika” yoki “Poeziya san’ati haqida” asarida va boshqa asarlarida adabiyotning real voqealarni aks ettirishni uning bosh materiali inson ekanligi, adabiyot tarbiya quroli ekanligini birinchi bo’lib ko’rsatdi. “Badiiy adabiyot” va oratorlik (notiqlik) san’ati haqida nazariy ta’lim yaratdi. Aristotelning bu asarida lirik janrning xususiyatlari, epos, tragediya, komediya kabi janrlar haqida o’z fikrini bildirgan. Uning bu haqdagi fikrlari hozirgi kungacha o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q.

U o’z zamonida keng tarqalgan zararli va asossiz nuqtai-nazarlarni rad etib, adabiy ijodning kishilarga katta foydasi yetishi mumkinligini isbot qiladi; san’atkorning original asarlar yaratish huquqini yoqlaydi; san’at nazariyasi zamonasining konkret badiiy mahsuloti asosida maydonga keltirilishi lozimligini ko’rsatadi.

Aristotel “Poetika” sidayoq adabiyotshunoslikning bir xususiyati namoyon bo’ldi. Adabiyot umuman go’zal san’atning bir turidir. Musiqa, rassomlik singari san’atlar bilan chambarchas bog’liq. Teatr kabi san’at bilan esa ajralmas holda bog’liqdir.

Aristotel ta’limoti juda uzoq muddat ichida ilmda hukmronlik qildi.

Aristotelning (Sharqda Arastu) Sharqda jahon olimlarining “birinchi muallimi” nomi bilan mashhur bo’lganini va “Poetika” ning o’rta asrlarda ko’p Sharq xalqlarining umum tili-arabchaga tarjima qilingan va Aristotel Sharqda adabiyotshunoslikning vujudga kelishida katta ta’sir qildi.

Gomerning “Illiada” sida so’z san’atining ikki usuli chiroyli so’zlash bilan qisqa so’zlash orasidagi afzallik haqida munozara boradi.

Qadim Yunonistonning klassik yozuvchisi “komediyaning otasi” Aristofan (eramizdan avvalgi 446-385-yillarda yashagan) o’zining “Baqalar” nomli komediyasida ikki mashhur dramaturg Esxil bilan Yevrepidni adabiyotning hayotga munosabati kabi juda muhim masala yuzasidan munozaraga solib qo’yadi va adabiyotda hayotni keng va butun murakkabligi bilan yoritish huquqini mudofaa etadi.

Uyg’onish davrida adabiyot va adabiyotshunoslik sohasida jonlanish yuz berdi. Italiya shoiri Dante “Xalq tili haqida” kitobida (1308-1309) adabiyotini, avvalgidek, faqat lotin tilida emas, balki milliy tilda yaratish lozimligini isbotlab beradi.

Uyg’onish davrining ma’rifatparvarlari Aristotel ta’limotini va shuningdek ulug’ Rim shoiri Goratsiyning (eramizdan avvalgi 65-68-yillar) «Poeziya haqida ma’lumot» kitobida aytilgan fikrlarini o’zlarining gumanistik g’oyalariga xizmat ettirishga harakat qildilar.

Italiyaning buyuk yozuvchilarini F. Petrarka va J. Bokachcho adabiyot nazariyasig oid fikrlar bilan maydonga chiqdilar, qadim adabiyot namunalarini yig’dilar, nashr ettirdilar.

XVII asr Fransiyada yashab ijod qilgan olim N.Bualo o'zining "Poetik san'at" asarida Aristotel fikrlariga biror yangilik kiritgan bo'lsa ham, asarning ilmiy ahamiyati kattadir. Buyuk fransuz olimi va yozuvchisi D.Didro esa o'z dramatik asarlari, "Dramatik poeziya haqida mulohazalar" nomli ilmiy asarida adabiyotni adabiyotga yaqinlashtiradigan bir qancha yangiliklarni nazariy asosladi.

Nemis olimi G.E.Lessning "Gamburg dramaturgiyasi" asarida san'atdan hayotni eng keng ravishda va erkin aks ettirishni talab etdi, adabiyotni oddiy kishilarni tasvirlashga chaqirdi, uning tarbiyaviy rolini ochishga da'vat etdi. Reaksiyon nazariyachilarning ba'zilar umuman san'at va adabiyotning kishilar hayotidagi rolini rad qilar edilar. Ba'zilar esa badiiy ijodni ongsiz ravishda sodir bo'ladigan bir hodisa deb tasvir etar edilar.

XVIII asr rus olimi Lomonosov "Cherkov kitoblarining foydasi", "Rus she'riyati qonunlari" asarlarida, "Ritorika va notqlikka qo'llanma" ilmiy dokladida adabiyotning konkret, nazariy, ilmiy masalalari to'g'risida mulohaza yuritgan. Radishchev o'zining adabiyotga oid fikrini "Lomonosov haqida qissa", "Bahodirga haykal" asarlarida ifodalangan. Rossiyada adabiyotshunoslik boshida Yevropadagi taraqqiyot bosqichlarini tezkorlik bilan takrorlagani holda XIX asrda jahon adabiyotshunosligiga o'zining xissasini qo'shgan.

Bu yerda avval A.S.Pushkin va Gogol, keyinroq esa ijtimoiy tafakkur tarixida «revolyutsion demokratlar» oqimi vakillari jahonda eng ilg'or estetik ta'limot yaratadilar. V.G.Belinskiy «Adabiy orzular», «Zamonamiz qahramoni», «Poeziyaning xil va turlarga bo'linishi», «San'atning goyasi», «Gogolga xat», N.G.Chernishevskiy «Poeziya haqida», «Aristotel asari», «Tanqidiy samimiylilik haqida», «Arxitektura haqida», «Rossiyada revolyutsion g'oyalarning rivojlanishi haqida», N.A.Dobrolyubov, D.I.Pisarevlar o'z asarlarida estetika va adabiyotshunoslik masalalarini hal etdilar. Adabiyotda izchil realizmni yoqladilar va asosladilar.

D) Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Adabiyotshunoslik hozirgi zamon fanlarining hammasi bilan qattiq aloqada taraqqiy topdi.

Adabiyotshunoslik filosofiyasi, tilshunoslik, pedagogika, psixologiya, estetika, san'atshunoslik, tarix, arxologiya, etnografiya fanlari aro shunday dialektik munosabat borki, shu aloqa tufayli bu fanlar bir-birining taraqqiyotiga ko'mak beradi. Adabiyotshunoslikni o'zi ham o'tmishda shu fanlar bag'rida, ular bilan qorishiq holda paydo bo'lgan. Ayniqsa bu aloqa tarix, tilshunoslik, estetika va nihoyat, falsafa fanlari bilan mustahkam aloqada.

Adabiyotshunoslikning bu fan sohalari bilan qattiq aloqasi ularning ob'ekti bo'lgan adabiyotning ba'zi xususiyatlari bilan ham tayin etiladi. Professor I.O.Sultonov yozganidek, birinchidan, adabiyot-jamiyat tarixini va uning ongini aks ettirar ekan, shu tarixning umumiy qonunlariga bo'ysunishi tabiiydir. Tarixning umumiy qonunlari adabiyot rivojining ham umumiy qonunlaridir. Shunga ko'ra, adabiyotshunoslik tarix fani bilan uzviy aloqada kamol topadi.

Ikkinchidan, jamiyat ongini va tarixini adabiyot til orqali aks ettiradi va shakllantiradi.

Uchinchidan, adabiyot-san'atning bir turidir. "Estetika esa go'zallikning qonunlarini va shu jumladan, san'at asarlari yaratishning qonunlarini o'rganadi. Adabiyotshunoslik bilan estetika faning yutuqlari bir-birlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan holda har ikki boyishi, mukammallashishi mumkin..

Nihoyat, jamiyat ongining eng so'nggi, eng oily ko'rinishi" (I.V. Belinskiy) bo'lgan adabiyotni yaxshi tushunishi va tushuntirishi uchun adabiyotshunoslik fani bilan birgalikda taraqqiy etishi, uning yutuqlariga asoslanishi lozim.

Adabiyotshunoslik falsafa faning yutuqlariga suyanadi, yangiliklarini sinchiklab o'rganib boradi.

Adabiyotshunoslarning ishlari ham boshqa fanlarni boyitib boradi.

Tayanch tushunchalar:

Adabiyot (arabchada "adab-odob" so'zining ko'pligi)-keng ma'noda barcha kitob turlari, gazeta-jurnallar, tor ma'noda, badiiy adabiyot.

Adabiyotshunoslik-badiiy adabiyot to'g'risidagi fan.

Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari: adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqid.

Adabiyotshunoslikning yordamchi qismlari, istoriografiyasi, tekstologiya, adabiyot bibliografiyasi.

Tekshirish savollari:

1. "Adabiyot" va "литература" atamaları ma'nolari va qo'llanish tarixi.
2. Badiiy adabiyot va uni o'rganishning ahamiyati.
3. Adabiyotshunoslikning asosiy va yordamchi fanlari.
4. Adabiyotshunoslik va uning ob'ekti, vazifalari.
5. Adabiyotshunoslik va xalq og'zaki ijodi.
6. Sharqda va G'arbiy Yevropada adabiy tanqidiy fikrlarning paydo bo'lishi.
7. Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi.

I bo'lim.

Badiiy adabiyot haqida ta'limot.

Hayot va adabiyot (4 soat).

Reja:

1. Ijtimoiy hayot va uning badiiy intixosi.
2. Fan, san'at va adabiyot.
3. Adabiyotning tasvir ob'ekti, predmeti.
4. Badiiy adabiyot-insonshunoslik.

Zaruriy adabiyot:

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T.O'qituvchi, 1986, 3-33-b.
2. N. Shukurov va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. T.O'qituvchi, 1984-3-32-betlar.

3.Cho'lpon.Adabiyot nadur?-T.Cho'lpon,1994,36-37-b.

4.Boboyev T.Adabiyotshunoslikka kirish kursi bo'yicha.O'quv metodik qo'llanma.T.O'qituvchi,1979.

Ijtimoiy borliq-jamiyatning moddiy hayoti, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish hamda shu ishlab chiqarish jarayonida kishlar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar. Ijtimoiy ong-qarashlar, tasavvurlar, g'oyalar; siyosiy, yuridik va estetik nazariyalar; filosofiya, ahloq, din va hokazo. Demak,jamiyat hayotining moddiy tomonlari-ijtimoiy (ong hodisasidir) borliq va uning ma'naviy jihatlari-ijtimoiy ong hodisasidir.Ijtimoiy borliq ijtimoiy ongdan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir.Ijtimoiy ong esa ijtimoiy borliqning intihosidir.Ijtimoiy ong bilan ijtimoiy ongning o'zaro munosabati murakkab dialektik jarayondir. Adabiyot ham ijtimoiy ong shakllaridan biri o'laroq ana shu qonuniyatga amal qladi,adabiyot hayotdan o'sib chiqadi va unga uzluksiz ta'sir o'tkazib turadi.Demak,hayot,ob'ektiv borliq,ijtimoiy turmush-asos va ijtimoiy ong hodisasidir;inson o'z miyasi vositasida ob'ektiv borliqni to'g'ri bila olishi,bilimlari o'zida ob'ektiv haqiqatni ifodalaydi-real borliq zaminida paydo bo'ladi.Shunga ko'ra,bizning ongimiz,tasavvurlarimiz, bilimlarimiz nisbiy haqiqatdir.Jamiyatning moddiy turmushi qanday bo'lsa, uning ma'naviy hayoti – siyosiy muassasalari,qarashlari,nazariyasi va g'oyalari ham shunday bo'ladi. Biroq bundan jamiyatning ijtimoiy ongi uning ijtimoiy borligiga befarq qarar ekan-da,degan yanglish xulosaga kelmaslik zarur.Binobarin,ijtimoiy ong (siyosat,falsafa,fan,san'at)ning jamiyatning moddiy turmushuga aktiv ta'siri haqidagi falsafiy xulosa adabiyot va san'atning kishilarni muayyan g'oyalar ruhida tarbiyalashi xalq hayotiga ta'sirini to'g'ri tushunishimizga yordam beradi.Haqiqatdan ham,hayotdagi progressiv san'at va adabiyot hayotdagi yetakchi tendensiyalarni ifodalash yo'li bilan million-million kitobxonlarning ong-shuuriga,qalbiga estetik ta'sir qilgan – ularni porloq istiqbolga da'vat etgan.Shuning uchun ham biz san'at asarlarini sevib o'qiymiz va o'rganamiz.

Ijtimoiy ong-ob'ektiv va ijtimoiy borliqning kishilar ongidagi in'ikosi. Ijtimoiy ongning rang-barang formalari mavjud:siyosat,ideologiya ,huquq, ahloq,din,fan,san'at,filosofiya...Ijtimoiy ong voqelikning kundalik ongdagi bevosita in'ikosidan farq qiladi:ijtimoiy ong formalari ozmi – ko'pmi sistemalashtirilgan ong sifatida nazariy tafakkur vositasidan vujudga keladi. Masalan,san'at va adabiyot mana shunday jarayon mahsulidir.

Ilmiy va badiiy tafakkur ob'ekti bitta-real borliq bizdan tashqaridagi olam. Ilmiy va badiiy tafakkur ana shu ob'ektiv dunyoni idrok qilish,o'zlashtirish-ning turli shakllaridir.U shakllarning har biri o'z vazifasiga ega.San'at va fan ma'naviy madaniyatning alohida turlaridir.

Ijtimoiy ongning rang-barang ko'rinishi mavjud:siyosat,mafkura,huquq, ahloq,din,fan,san'at,filosofiya.Fan-ijtimoiy-tarixiy turmush taraqqiyoti jarayonida tabiat,jamiyat va tafakkur haqida to'plangan bilimlar yig'indisi. Fanning maqsadi – hodisalarning ob'ektiv qonunlarni ochish,ularni to'g'ri tushuntirib berishdan iborat.

Tabiat fanlari (ximiya,fizika,matematika,mexanika,biologiya kabi) tabiat hodisalarini o'rganish bilan shug'ullansa, ijtimoiy fanlar (tarix, siyosiy

iqtisod, falsafa kabilar) jamiyatning taraqqiyot qonunlarini kashf etadi. Tabiat va jamiyat haqidagi fanlar ijtimoiy ong shakllari sifatida ijtimoiy hayot va tabiat zaminida vujudga keladi hamda ijtimoiy taraqqiyot uchun xizmat qiladi. Umuman, fan hayotni mantiqiy xulosalar asosida o'zida ifodalaydi, hayot qonunlarini ochadi.

San'at – badiiy adabiyot, arxitektura, haykaltaroshlik, rassomlik, musiqa, teatr, horeografiya, kino va boshqalar ijtimoiy ong shakllaridandir. San'at ham, huddi fandek, hayotni aks ettiradi va hayot jumboqlaridan saboq beradi. Shu sababli u ham ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. San'at, fandan farqli o'laroq, hayotni obrazlar vositasida ifodalaydi. Gegel aytganidek, san'at obrazlar orqali fikrlash demakdir.

Hayotni obrazlar orqali aks ettirish jihatidan san'at turlari o'rtasida umumiylik, o'xshashlik, mushtaraklik mavjud bo'lsada, obraz yaratish jarayonida san'atning har bir turi uning faqat o'zigagina xos bo'lgan ifoda vositalaridan foydalanadi. Bunday ifoda vositalari, odatda, san'at turining “o'z tili” deb yuritiladi.

Adabiyot – nutq, kompozitsiya, poeziya, ohang, ritm kabilar vositasida badiiy obraz yaratiladi. Bunday vositalarning jonisiz adabiy asar yashay olmaydi. Shu sababli bu vositalarning jami – nutq, ritm, ohang, kompozitsiya – badiiy adabiyot “tili”dir. Biroq nutq M. Gorkiy aytganidek, adabiyotning qurulish materiali, birinchi elementi, asosidir. Shunga ko'ra, badiiy adabiyot “so'z san'ati” deb ham yuritiladi. Adabiyot so'z vositasi bilan obraz yaratganligi sababli san'atning boshqa turlariga nisbatan hayotni va insonni mumkin qadar to'laroq ifodalash imkoniga ega. Adabiyotning afzalligi shundaki, u shaxsan, voqeani, predmetni yaqqol va yorqin ifodalaydi, tashqi dunyoning rang-barang hodisalarini ham, inson qalbi dialektikasini ham o'z ichiga qamrab oladi. Negaki, badiiy adabiyot san'atning boshqa turlariga xos bo'lgan tasvir vositalaridan ham foydalana oladi.

Inson-san'at va adabiyotning bosh predmeti, tasvir ob'ekti. Ammo bu ham o'ziga xos tarixga ega-san'at paydo bo'lishi bilanoq inson uning asosiy predmeti qilib olinmagan. Adabiyotda insondan tashqari tabiat, hayvonot dunyosi, buyumlar va boshqalar ham tasvirlanadi. Ammo ular ham, albatta, inson bilan bog'liq holda beriladi. Shu o'rinda masalaning quyidagi nazariy jihatlariga alohida e'tibor berish kerak.

Adabiy asarda insondan tashqari tasvirlanadigan ob'ektlarning eng muhimi tabiat bo'lib, u ilmiy adabiyotda peyzaj deb yuritiladi. Badiiy asarda tabiat obrazi tez-tez o'chrab turadi.

Eng avval u asar kompozitsiyasida, aniq g'oyaviy maqsadni ifodalaydi:

a) qahramon harakat qiladigan tabiat muhitni ifodalaydi.

b) qahramon karakterining u yoki bu qirralarini ochishga xizmat qiladi.

v) asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisaga tarixiy – konkret tabiiy tus beradi va hokazo. Shoir Oybek “Na'matak” she'rida yuzaki qaraganda shunchaki bir tog' guli – na'matakni ta'rif-tavsif qilayotganga o'xshaydi – she'rda faqat na'matak haqidagi gap borayotgandek tuyuladi. Aslida esa shoir bu she'rda ramziy obraz – na'matak vositasida qahramon (shoirning o'zi) ning jonajon o'lkamiz bahoriga, quvnoq hayotga, tugallikka, nafosatga bo'lgan jo'shqin muhabbatini

tarannum etadi. Na'matak har qanday qabohatni, yovuzlikni, qora kuchlarni dog'da qoldira oladi:

Nafis chayqaladi bir tup na'matak
Yuksakda, shamolning belanchagidek,
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,
Viqorla o'shshaygan qoya labida,
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...
Tog'lar havosining feruzasidan
Mayin tovlanadi butun niholi,
Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:
Yuksakda raqs etar bir tup na'matak
Quyoshga bir savat gul tutib hursand!

She'rdagi har bir so'z va ibora shu qadar jozibaliki, go'yo ular misrlarga tizilgan javohirlarga o'xshaydi.

Badiiy asarda hayvonot dunyosi tasviriga ham alohida e'tibor beriladi. Hayvonlar obrazi ham (alohida) xuddi peyzajdek, inson harakterining u yoki bu qirralarini ochishi kerak.

Bu o'rinda, "Alpomish" dostonidagi Boychibor, I.S.Turgenevning "Mumu" hikoyasidagi Mumu, Ch.Aytmatovning "Alvido Gulsari" povestidagi Gulsari, Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasidagi ot tasvirini eslash kifoyadir. Demak, adabiy asarning tasvir ob'ekti umuman, hayot – tabiat va jamiyat hodisalari. Biroq tasvir markazida inson, uning hayoti, hatti-harakatlari, his-tuyg'ulari, rashki, quvonchi va dard – sitamlari turadigan.

Ulug' san'atkorlarning eslaganimizda, daf'atan ular yaratgan adabiy qahramonlar yodimizga tushadi. Chunonchi, Gomer deganda Axilles, Gektor, Odisseya; Alisher Navoiy deganda – Farxod, Shirin Dilorom, Iskandar, Majnun, Layli, Bahrom; Oybek deganda – Yo'lchi, Alisher Navoiy, O'ktam, Komila, Bektemir kabi yorqin obrazlar ko'z o'ngimizga keladi. Gomer davridan bizning zamonamizgacha badiiy adabiyot juda uzoq va benihoya murakkab taraxiy jarayonlarni bosib o'tdi, ammo har doim inson uning diqqat markazida turdi. Biroq bunday badiiy asarda insondan boshqa hech narsa tasvirlanmas ekanda, degan bir tomonlama xulosa chiqarmaslik kerak. Shunga ko'ra, san'at asarining bosh predmeti insondir deb tushunmak kerak.

Badiiy adabiyot – insonshunoslik. Avvalo shuni aytish kerakki, inson san'at va adabiyotningina predmeti emas. Insonni fiziologiya, anatomiya, stomatologiya, xirurgiya, urologiya, travmatologiya kabi meditsina fanlari, tarix, etnografiya, antropologiya, pedagogika, psixologiya kabi qator fanlar ham o'rganadi. Shunga ko'ra, insonni fan qanday tekshiradi va san'at qanday o'rganadi, degan savol tabiiy ravishda kelib chiqadi.

San'at esa o'z predmetini chinakam yaxlitlikda olib tekshiradi.

Inson adabiyotda butun murakkabligi, yaxlitligi bilan aks etadi. Boshqacha qilib aytganda, inson adabiyotda «ijtimoiy munosabatlar majmui» sifatida

tasvirlanadi. Adabiyotning markazida inson – xis qiluvchi, fikrlovchi, harakat qiluvchi, o'z atrofini qurshab olgan tashqi dunyo bilan bog'langan kishi turadi.

Yozuvchi o'z asarida butun voqelik va murakkab hayotiy munosabatlarni konkret inson hayoti kartinalari orqali badiiy ifodalaydi. Adabiyotning – bilish predmeti – voqelik, hayot, tasvir ob'ekti inson va uning vazifasi – kishilarni tarbiyalash. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, badiiy asar qahramoni kitobxon qalbini hayajonga solsa-da, hayotiy masalalarni ifodalanmagan bo'lsa, ko'zlangan maqsadga to'la erishib bo'lmaydi. Asar turli-tuman kitobxonlarga ma'naviy oziq berishi, yozuvchi ularni qiziqtiradigan muammolarni tasvirlashi lozim. San'at kitobxonni zavqlantirishi, unga behad quvonch, ishtiyoq, ilhom baxsh etishi lozim.

Ma'lumki, hayotni obrazlar orqali aks ettirish jihatidan san'at turlari o'rtasida umumiylik, o'xshashlik, mushtaraklik mavjud bo'lsada, obraz yaratish jarayonida xar bir turi uning o'zigagina xos bo'lgan ifoda vositalaridan foydalanadi.

Bunday ifoda vositalari, odatda san'at turining «o'z tili» deb yuritiladi.

Badiiy adabiyot tili haykaltaroshlik tilidan, musiqa tilidan va boshqalardan farq qiladi. Rassomlikda badiiy obraz surat va kartina koloriti vositasida yaratiladi, shunga ko'ra rassomlik tili deganda birinchi navbatda chiziqlar, rang, yorug'lik soyasi va kompozitsiyani tushuniladigan xoreografiyaning tili esa inson tanasining o'ziga xos ifodali harakatidir.

Adabiyotda nutq, kompozitsiya, vositasida, poeziyada yana she'riy nutqning ritmik – melodik tuzilishi vositasida badiiy obraz yaratiladi. Bunday vositalarning jamul-jamisiz adabit asar yashay olmaydi. Shu sababli bu vositalarning jami – nutq, ritm, melodika (ohang), kompozitsiya – badiiy adabiyot tilidir. Biroq, nutq, M. Gorkiy aytganidek, adabiyotning qurilish materiali, birinchi elementi, asosidir. Shunga ko'ra badiiy adabiyot “so'z san'ati” deb ham yuritiladi. Adabiyot so'z vositasi bilan obraz yaratganligi sababli san'atning boshqa turlariga nisbatan hayotni va insonni mumkin qadar to'laroq ifodalash imkoniga ega. V. G. Belinskiyning “Poeziyaning xil va turlarga bo'linishi” nomli maqolasida shunday deb yozadi: Poeziya (adabiyot) san'atning oily turidir. Xar qanday boshqa san'at o'z ijodiy faoliyatida ko'rinishi uchun vosita bo'lgan material bilan ma'lum darajada sikilgan va chegaralangan xolda bo'ladi. Me'morchiik asarlari, bir buyuk butunlik tashkil etuvchi qismlarining garmoniyasi bilan, yoki o'z formalarining ulug'vorligi va dabdabasi bilan bizni hayratda qoldiradi. O'tkir qirrali uchlari samo bizning ruhimizni yuksaltiradi. Lekin ularning ruhimizga qilgan ta'siri shu bilan cheklanadi. Bu – faqat shartli simvoldan absolyut mutlaq san'atga intilishdir; bu xali to'la ma'nodagi san'at emas, faqat san'atga intilish va unga birinchi qadamdir. Haykaltaroshlik soxasi, kengroq qaraganda, uning vositalari boyroqdir. U inson tanasi shakllarining go'zalligini ifodalaydi. Inson yuzidagi fikr ko'lankalarini ko'rsatadi; lekin u yuzdagi fikrning bir paytini, tandagi bir vaziyatnigina tutib qoladi. Shu birga haykaltaroshning ijodiy faoliyati insonning butun siymosini qamray olmaydi, balik inson tanasining tashqi shakllari bilangina chegaralanadi. Erkak kishilarda faqat mardlik, ulug'vorlik va kuchni, xotinlarda go'zallik va noziklikni ifoda qiladi. Rassomlik san'ati butun insonni, xatto uning ichki ruhiy dunyosini ham o'z ichiga oladi; ammo rassomlik ham hodisaning faqat bir paytini qamrash bilan chegaralanadi. Musiqa esa, eng ko'p ruhning ichki

unyosini ifoda etuvchidir;lekin musiqa ifoda qilgan idealar tovushlardan (sadolardan) ayrilmaydi,tovushlar ruxga ko'p narsa bersa ham,ahdga hech nimani ochiq aniq qilib aytmaydi. Poezia (adabiyot-T.B.) erkin inson so'zida ifodalanadi,so'z esa – ham tovush, ham kartinadayam aniq va ravshan aytilgan tasavvurdir.Shuning uchun poeziya (adabiyot-T.B.) boshqa san'atlarning – hamma elementlarini o'z ichiga oladi,bo'lak san'atlarning xar biriga ayrim ravishda berilgan xamma vositalardan bir varakay va to'la suratda foydalanadi.Poeziya (adabiyot-T.B.) san'atning bir butunligini va uning butun tuzilishi ko'rsatadi va san'atning xamma tomonlarini qamrab, uning xamma ochiq va aniq ayirmalarini o'z ichiga oladi.

Xaqiqatan ham badiiy adabiyot san'atning boshqa turlariga nisbatan tasvir imkoniyatining kengligi va tasvirining sintetikligi bilan ajralib turadi. Chunonchi,san'atning makon bilan bog'liq,turlari – rassomlik va haykaltaroshlik bilan qiyoslab ko'raylik.To'g'ri badiiy adabiyot ko'rgazmalik va yorqinlik jihatidan haykaltaroshlik va rassomlik bilan baxslasha olmaydi. Haykaltarosh va rassom predmetning ko'zga tashlanib turadigan jihatlarini aks ettiradi.Kishilarning ichki kechinmalarini,harakterini,odamlararo muomala – munosabatlarning bir zuminigina kartina yoki haykalda turli-tuman tashqi harakatlar vositasida ifodalaydi xolos.Adabiy asarda qahramonning tashqi ko'rinishi,uning muhiti va ichki kechinmalari (fikir-o'ylari,his-hayajonlari, tuyg'ulari,orzu-intilishlari kabilar),ya'ni insonning ko'zga tashlanib turadigan va ko'zga tashlanmaydigan jihatlarini mufassol ifodalanadi.G.E.Lessning «Laokon yoki haykaltaroshlik va poeziyaning chegarasi haqida» nomli asarida ta'kidlashicha,makon bilan bog'liq,san'at,asosan,figura,ya'ni predmet,hodisa, shaxsni badiiy ifodalash bilan shug'ullansa,poeziya doirasiga harakat,ya'ni kishilarning ichki dunyolari va tashqi muhitida yuz beradigan xatti-harakatlarini aks ettirish masalasi turadi.

Badiiy asarda hayvonot dunyosi tasviriga ham alohida e'tibor beriladi. Ammo u ham inson hayoti bilan bog'liq holda ifodalanadi.Hayvonlar obrazi ham,huddi peyzajdek,inson harakterining u yoki bu qirralarini ochishi kerak. Bu o'rinda, «Alpomish» dostonodagi Boychibor, Ch.Aytmatovning «Alvido Gulsari» povestidagi Gulsari,A.Qahhorning «Sinchalak» qissasidagi ot tasvirini eslash kifoyadir. «Sinchalak»da Qalandarov bilan Saidaning otda kolxozni aylanib chiqishni tasvirlovchi epizod bor.Shu epizod orqali, birinchidan,Qalandarovning kolxoz hayotini yaxshi bilishligi,kishilar qalbiga yo'l topa oluvchanligi, tajribakorligi ko'rsatilgan bo'lsa, ikkinchidan, tajribasiz Saidaning undan ko'p narsalarni o'rganganligi dalillangan. Ammo shu epizodda avtor bir simvolik g'oyani ham olg'a surgan. Bu g'oya ot vositasida ochilgan.

Qalandarov aslida Saidani kolxozdan bezdirish maqsadida ana shu “sayohat”ni uyushtiradi. Shuning uchun ham uning o'zi yuvosh samanni olib,otda yurib o'rganmagan Saidaga boshini qo'yib yuborsa surib ketadigan,tortsa o'ynoqilaydigan o'ta sho'x toyni beradi. Ot Saidani haddan tashqari qoliqtiradi, qiynaydi.Dala yo'lga chiqilganda Saida bir tajribasizlik qildi, toy hadeb surishga intilaverganidan bir choptiray,zoraiki charchab,biroz «bosilsa» degan hayolda boshini qo'yib berdi.Shunga maxtal bo'lgan toy birdan ko'tarib ketdi.Saida xarchand boshini tortmoqchi bo'lsa ham,xuddi tushida urinayotganday,tortolmas

edi. U egarning koshini ikki qo'llab mahkam ushlagancha entikib,dod deyishga nafasini rostlolmay borar edi;nazarida ming kilometr ko'rinmagan bir necha metr masofani bosganidan keyin nima bo'lib xushini o'ngladi-yu,jilovini siltab tortdi.Toy birdan yo'lga ko'ndalang bo'lib o'ynoqiladi, pishqirib oldingi oyoqlarini ko'tardi, chopganidan keyin charchab bosilish o'rniga badtar bo'ldi. Saidaning beliga og'riq kirdi,taqimi shilinganday bo'lib achishdi....»

Avvalo, bu o'rinda toyning sho'xliklari zamirida bir poetik g'oya bor, shu orqali Qalandarov Saidaga «Siz bolalik qilib,bunaqa hom hayollarga borib yurmang. Men o'zim aravadan boshqa ishga yaramaydigan pachiq otday ko'rinsam ham uncha-muncha chavandoz minolmaydigan ulochi otman. Uncha-muncha odamni yerga chalpak qilaman.Chalpak. Buni bilib,tushinib qo'ying...»deyayotganday tuyuladi kishiga.Xa,rais chindan ham shunday demoqchi.Biroq ko'p o'tmay Saida sal tajriba orttirib,sho'x toyni jilovlab, butunlay o'z izmiga solib oladi.Bu bilan avtor go'yo Qalandarovga «Buzoqning yugurgani somonxonagacha»,sen bunday mantiqsiz tarxashliklaring bilan uzoqqa borolmaysan, baribir Saida seni jilovlab oladi, chunku u faqat aql-idrok va kuchli mantiq asosida ish qiladi,undagi tajribasizlik,g'o'rlik o'tkinchdir» deyayotganday...

Ba'zan – badiiy asarda hayvonlar obrazi murakkab g'oyaviy-kompozitsion rol o'ynashi, ammo shunda ham ular, albatta, inson xarakterlarini ochishga,uning xatti-harakatlarini,taqdirini izohlashga ko'mak berishi kerak. Masalan, L.Tolstoyning «Anna Karenina»romanida tasvirlanishicha,poygada Vronskiy oti yiqilib beli sinadi.Bu hodisa roman bosh qahramoni Anna Kareninaning qismatida burilish nuqtasining sodir bo'lishiga sabab bo'ladi.Shu paytgacha Anna o'zining Vronskiyga bo'lgan muhabbatini eri Aleksey Aleksandrovichdan yashirib kelgan bo'lsa, endilikda ochiqdan-ochiq,e'tirof etadi.To'g'ri,men hayajonga tushdim, hayajonga tushmay turolmasdim.Hozir ham qulog'im sizdayu,hayolim unda.Men uni yaxshi ko'raman,men uning ma'shuqasiman,ortiq, chidayolmayman.Sizdan qo'rqaman,sizdan nafratlanaman..." deydi u eriga.

Demak adabiy asarning tasvir ob'ekti – umiman hayot-tabiati va jamiyat hodisalari.Biroq tasvir markazida inson, uning hayoti,xatti-harakatlari,xis-tuyg'ulari,kurashi,sevgisi,nafrati,rashki,quvonchi va dard-alamlari turadi.Shunga ko'ra,san'at asarining bosh predmeti insondir deb tushunmoq kerak.

3 – ma'ruza.Badiiy obraz (4 soat).

Dars rejasi:

1. Obrazlilik va obraz.
2. Badiiy obraz vauning asosiy xususiyatlari.
3. Obraz yaratish usullari.
4. Obrazlar tasnifi.

Adabiyot:

1. Abdulla Qahhor. Hayot xodidasidan badiiy to'qimaga. Asarlar (olti tomlik) - T. Adabiyot va san'at, 1971-6t.b. 314-328.
2. Oybek. "Navoiy" romanini qanday yozdim. Mukammal asarlar to'plami. T. Fan, 1979-13t.b. 291-293.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T. O'qituvchi, 1980-6. 191-195.

1. OBRAZLILIK VA OBRAZ.

Obrazlilik-san'at umumiy xususiyati, hayotni o'zlashtirishning spetsifik, formasik usuli, san'atning "tili" va shu bilan birga hayot hodisalari ustida chiqargan "hukmi". Badiiy obraz-obrazlilik tushunchasining bir qismi. Obrazlilik-adabiy ijodning mohiyatini, umumiy xususiyatlarini: adabiy qahramon, badiiy til, tabiat, predmet, hayvonot dunyosi tasviri va hokazolarni o'z ichiga qamrab oladi. Obraz – san'at asaridagi inson ta'sviri. Demak, obrazlilik – keng ma'noda, badiiy obraz – tor ma'noda qo'llaniladi. Biroq shuni ham esda tutish kerakki, obraz atamasining o'zi ham ikki ma'noda, ya'ni keng va tor ma'nolarida qo'llanilmoqda. Obraz atamasi keng ma'noda qo'llanilganda obraz tushunchasi doirasiga inson tasviridan tashqari peyzaj, detallar, buyumlar, predmetlar, jismlar hayvonot dunyosi, asar tilidagi tasvir vositalari va xokazolar kiritiladi. Obraz atamasi tor ma'noda qo'llanilganda esa faqat inson hayotining badiiy manzaralari anglashiladi xolos.

Obraz nazariyasi haqidagi ibtidoiy fikrlarni mashhur yunon faylasufi Aristotelning estetik qarashlaridayoq uchratish mumkin (qarang: Aristotel, *Об искусстве поэзия*. М. 1957, стр. 118). Biroq, obraz atamasi birinchi marta mashhur nemis faylasufi Gegelning estetikaga oid asarlarida ishlatilgan, bu haqda jiddiy ta'limot ham ana shu olim qalamiga mansub. Gegel (1770-1831) o'z estetik qarashlarida san'at haqida fikr yuritarkan, "San'at – obrazlar orqali fikrlash" demakdir deb ta'kidlaydi. San'atga berilgan bu ta'rif klassik ta'rif bo'lib qolgan.

Rossiyada "obraz" atamasini asosan V.G. Belinskiy (1811-18487) adabiyot ilmiga olib kirdi, bu haqdagi ta'limotni mukammallashtirdi. O'tmishda o'zbek adabiyotida obraz atamasi ishlatilmagan, buning o'rniga "tasvir", "nusxa" kabi iboralar qo'llanilgan. XX asrda O'zbekistonda ham obraz atamasi qo'llanila boshlangan. Asosan, obraz atamasi 1939-yilda nashr etilgan Izzat Sultonovning "Adabiyot nazariyasi" darsligida juda keng va prinsipial ravishda ishlatilgan. Shundan beri bu atama o'zbek adabiyotshunosligi terminologiyasidan mustahkam o'rin olgan.

2. BADIY OBRAZ VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI.

Ma'lumki, san'at va adabiyotda hayot obrazlar vositasida aks ettiriladi. San'atkor hayotni kuzatadi, kuzatgan voqealarini tafakku olamidan o'tkazadi, ularni qayta tashkil qilib yana jonli hayot shaklida yaratadi. Hayot voqea-hodisalarini qayta tiklashda inson obrazi g'oyatda muhim rol o'ynaydi. V.G. Belinskiyning fikricha, "Roman yoki qissada shaxslar, xarakter va tipiklik bo'lmasa, hayot-voqeligi qay darajada to'g'ri chizilgan bo'lmasin kitobxon undan

hayotning real aksini topa olmaydi”. («Русские писатели о литературном труде», Л.1954, т.1, стр.526.) Bundan badiiy asarda obraz qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi anglashilarlikdir.

Shuni ham aytish kerakki, badiiy obraz deyilganda asosan inson obrazi tushiniladi va u adabiyotda xal qiluvchi rol o'ynaydi. G'oyaviy-badiiy yetuk asarlardagi kishilar obrazlari orqali biz ma'lum bir davr hayoti haqida keng va konkret ma'lumot olamiz. Shu sababli quyida biz obraz haqida fikr yuritish ekanmiz, asosan, kishilik obrazini nazarda tutamiz.

Xo'sh, badiiy obrazning mohiyati, asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

Prof. L.I. Timofeevning ta'rificha, “Obraz – to'qima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotning umumlashma va ayni choqda, konkret manzarasidir” (Л.И. Тимофеев, Основы теории литературы, Прос.М.1971, стр.62-63).

F.M. Golovichenkoning fikricha, “Obraz – individual forma orqali hayotiy hodisalarni umumlashtirish demakdir” yoki “Badiiy obraz – bu inson va inson hayotining konkret va ayni choqda, umumlashma manzarasidir” (F.M. Golovenchenko, Введение в литературоведение, «Высшая школа», М.1964, стр. 20 и 28). Bu ta'riflardan ham anglashilarlikki, obraz deganda inson hayotining badiiy manzaralari tushiniladi. Inson hayotining badiiy manzaralari deganda esa biz adabiy asarda inson hayoti kartinalarini tasvirlash jarayonida namoyon bo'ladigan quyidagi to'rt xususiyatni anglaymiz:

- a) umumlashmalik
- b) konkretlik, individuallik
- v) badiiy to'qimadan foydalanish
- g) tasvirda emotsionalikka erishish

Bular – badiiy obrazning asosiy xususiyatlari bo'lib, ularni shartli ravishda, alohida-alohida ko'zdan kechirish badiiy obraz tuzilishini, tabiatini va funksiyasini anglashga yordam beradi.

3. UMUMLASHMA-BADIIY OBRAZNING XUSUSIYATI.

L.V. Tolstoyning fikricha, “adabiyotda ma'lum bir tip yaratish uchun shu toifadagi juda ko'p kishilarga xos xususiyatlarni tanlab olib, badiiy bir butunlikka jamlash kerak”. M. Gorkiyning ta'kidlashicha, “yozuvchi bir do'kondor chinovnik yoki ishchi obrazini yaratish uchun juda ko'p do'kondor, chinovnik yoki ishchi hayotini o'rganishi, ularning sotsial-sinfy qiyofasini belgilovchi xarakterli xususiyatlarni, odatlarni va boshqalarni bir obrazda bera olishi kerak”. Demak, adabiy asar qahramoni hayotdagi kishilarga juda o'xshab ketsa-da ularning aynan o'zi bo'la olmaydi. Obraz – umumlashma natijasi bo'ladi. Asarda tasvirlangan birgina obraz zamirida yuz minglab kishilarga xos xislat va belgilar umumlashtirilib, jamlab beriladi. Masalan, shoir G'afur G'ulomning “Ko'kan” poemasidan olingan quyidagi misralarga e'tibor qilyalik:

Ko'kan yo'li boy bir tarix, tugal doston,
Bu dostonda birlashadir millionlab jon,

Bu dostonning qahramoni butun bir sinf,
Bu dostonda kurash,o'lim,yenguv va chin.
(G'afur G'ulom,Asarlar,besh tomlik,3-tom,T.,1965,186-bet).

Shoir Hamid Olimjon "Zaynab va Omon" dostonining muqaddimasida:

So'ylab beray Zaynab va Omon
Sevgisidan bir yangi doston.
Bir zo'r otash,bir zo'r alanga
Ikki qalbga tutashgani rost,
Bir sevgikim jon berur tanga,
Ham Zaynabu Omonlarga xos.
Deb yozishi ham bejiz emas-da!

Shunday qilib, Ko'kan ham,xattoki Zaynab va Omonlar ham 30-yillardagi yoshlarning xarakterli xususiyatlarini o'zlarida mujassamlashtirgan,binobarin, ular umumlashtirilgan obrazlardir.Shuningdek,Oybekning "Qutlug' qon" romanidagi Mirzakarimboy obrazi – XX asr boshlarida tug'ilib kelayotgan o'zbek milliy burjuaziyasining umumlashma obrazi – tipi ekanligini ham payqash qiyin emas.Mana,shunga ko'ra badiiy asarni o'qiganda sezib turamizki,asarda tasvirlangan kishilar hayotdagi jonli odamlarning xislatlarini o'zida jamlagan,badiiy bir butunlikka yiqqan,sintaezlangan tahlildir.

2.Badiiy obrazning konkretligi va individualligi.Adabiy asarda tasvirlangan badiiy obraz umumlashma natijasigina bo'lmay,ayni,choqda,konkretlashtirish, individauallashtirish mahsuli hamdir.Zotan,adabiy qahramon tom ma'noda individuashtirilgan bo'lishi zarur. Chunki yozuvchi badiiy obrazni individual xususiyatlari bilan ko'rsatish orqali konkretlashtiradi,obrazga jonlilik,hayotiylik,tabiiylik baxsh etadi,emotsionalikka erishadi – o'quvchi xissiyotiga ta'sir qiladi,uni ishontiradi.

M.Gorkiy yozadi: "Yozuvchi o'z qahramonlariga aynan jonli kishilarga qaragandek qarashi kerak,ularning jonli bo'lishlari uchun esa yozuvchi bir qahramonning nutqida,harakatida,jussasida,yuzida,jilmayishida,ko'z o'yinida va hokazolarda xarakterli,o'ziga xos original xususiyatlarni qidirib topib, ta'kidlab ko'rsatish,qayd qilishi zarur.Bularning xammasini qayd etish bilan yozuvchi tasvirlagan narsalarni kitobxonning tuzukroq ko'rishi va eshitishiga yordam beradi.Mutlaqo bir xil odamlar bo'lmaydi,xar bir kishining ichki qiyofasida ham,tashqi ko'rinishida ham qandaydir o'ziga xoslik bo'ladi."

Individuallashtirish asosi – real hayot. Hayotda esa,odamlar xar xil bo'ladi.Ana shu turli-tuman xarakterli odamlar adabiyotda individuallashtirish orqali o'z ifodasini topadi.Individuallashtirish bir xil maslak va g'oyadagi kishilarning rang-barang obrazlarini yaratish imkonini beradi.Masalan,Asqad Muhtorning «Tug'ilish» romanidagi Nafisa,Lukmoncha,Juman,Pochchayev, Samadiy,Bek,Adolat obrazlari maslak va g'oya jihatidan asosan bir guruhga mansub bo'lsada,bir-biridan keskin ajralib turadigan rang-barang qiyofadagi qahramonlar sifatida namoyon bo'lgan.Oybekning «Qizlar» dostonida

Nazmixon,oltinoy,Dilbar,Oyjamol va Gulshan obrazlari yaratilganki,bularning ham xar birining o'z qiyofasi,ko'z yoshi,zavqi,qilig'i,portreti bor.

Mashhur rus klassik rus yozuvchisi M.E.Saltikov-Shedrin realistik adabiyotning muhim xususiyatlaridan biri – insonni hayotda bo'lganidek murakkab,ko'p qirrali,rang-barang xislatlar egasi qilib ko'rsatishda iboratdir deb ta'kidlaydi.Uning uqtirishicha, «Inson murakkab organizm»dir.Shunga ko'ra,adib insonning ichki dunyosini oldindan o'ylab qo'yilgan «bir yuxud bir necha» detallar orqali ifoda ;amoqchi bo'lgan,aslida esa «tamomila bir qolipdagi» obrazlar yaratayotgan yozuvchilarga qarshi kurash olib borgan; obrazlarning rang-barangligihaqidagi talabni xalq hayotini jo'nlashtirib ko'rsatishga qarshi kurash bilan bog'lagan.

Obrazlarning rang-barangligi,estetik boyligi,ko'p qirraligi,hayotning murakkabligi taqozosidir.Obrazlarning rang-barangligi – konkret tarixiy vaziyatdagi inson xarakterlarini haqqoniy tasvirlash natijasi.Bu – tipik sharoitni qahramonning bevosita intellektual olami,xatti-harakatlari,qiliq-odatlari,muomalamunosabatlari orqali badiiy ifodalash demakdir.Yozuvchi rang-barang obrazlar yaratishda,xar bir obrazning ko'p qirrali,takrorlanmas xislatlar sohibi sifatida ko'rsatishga,albatta,hayot haqiqatiga asoslanadi.Aks holda,turmush dialektikasini,hayot evolutsiyasini buzib ko'rsatuvchi sxematik obrazlar yaratiladiki,bunday obrazlar kitobxon qalbiga yo'l topa olmaydi. Badiiy yetuk obrazlar yaratilgan asarlar esa,haqiqatan hayot xarakterlarini o'z ichiga oladi.Shunday asarlar va ularning qahramonlari kitobxonning qalb ko'zgisida naqshlanib qoladi,uni estetik jihatdan boyitadi.Chunonchi, «Sinchalak» povestida Abdulla Qahhor qalami bilan yaratilgan rang-barang qahramonlarning xar biri xarakter jihatidan murakkab,ko'p qirrali,ammo, yaxlit,quyma,individual obrazdir. Saida,Qalandarov,Nosirov,Eshon,Kozimbek,Umida,Tojixon,Ismoiljon,Oyniso,Zulf iqorov,Mehrixon, Kifoyatxon va boshqa obrazlar,bir-biriga birinchidan,bir-biriga sira o'xshamaydigan g'oyatda original obrazlar bo'lsa,ikkinchidan,ularning xar biri ko'p qirrali,rang-barang xislatli odamlar tipi sifatida ko'z o'ngimizda jonlanadi-jonlilik,hayotiylik bu obrazlarning «qon-joni» ga chuqur singib ketgan.Xususan,Arslonbek Qalandarov obrazini yaratish (umumlashtirish va individuallashtirish)da adib o'zining ulkan talant va san'at sohibi ekanligini to'la namoyish qila olgan.

Arslonbek Qalandarov – benihoya murakkab obraz. Uning siymosida insoniy xislatlar va qusurlar payvandlashib ketgan. Qalandarov kollektivlashtirish davrida faollik ko'rsatga,qoloq xo'jaliklarni ilg'orlar darajasiga ko'tarishda katta xizmat qilgan,dehqonchilik ilmini suv qilib ichib yuborgan,odamlar qalbiga yo'l topa oladigan tajribakor va tadbirkor rahbar.U kolxoz mulkini ko'z qorachig'iday asraydigan odam. Shuning uchun uni kolxozchilar xurmat qilishadi.Ammo,ayni choqda Qalandarov siymosida katta-katta unsurlar ham bor – u shaxsga sig'inish avj olgan bir davrda yutuqlaridan mag'rurlanib ketadi – kolxoz demokratiyasini buzadi, shuhratparastlikka,beklikka beriladi:izzat-obro' keltiradigan plan va daromaddan boshqa xamma narsaga panja orasidan qaraydigan bo'lib qoladi. Shu tufayli u o'z faolliyatida ko'zbo'yamachilikka,soxtalikka yo'l qo'yadi. Arslonbek Qalandarov obrazining konkretligi va individualligi haqida gap ketganda shuni aytish kerakki,yozuvchi Qalandarov

obrazining tashqi portretidan tortib ichki kechinmalarigacha, xatti-xarakterlari-yi qiliq odatlarigacha, nutqidan tortib yurish-turishlarigacha chuqur individuallashtirgan. Bu o'rinda Qalandarovning ba'zi qiliq odatlarini eslaydigan bo'lsak, bu odatlar ham boshqalarda sira-sira uchramaydigan, faqat uning o'zigagina xos odatlar ekanligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Masalan, uning mehmon kutish odati ham o'zgacha: "Qalandarov mundrayroq odam kelsa yugurdagiga "Eshon" der ekan. Bu "bu ikkita non bilan choy olib kel" degani. "Xoy, Eshon!" desa - osh buyurgani, "Eshon xoy" degani esa "xovliga borib xotinimga ayt, nozik mehmon olib boraman" degani bo'lar ekan. Rais o'z kabinetini yo mehmon kelganda, yo jahli chiqqanda ochtiradi. U faqat ovqatlardan palovni, rahbarlardan faqat o'rtoq Qodirov (rayon partiya komitetining sobiq birinchi sekretari)ni, dorilardan faqat pensilinni tan oladi yoki u shaharga tushsa, albatta, sirkka kiradi va boshqalar. Shu kabi xislat va belgilar jam bo'lib, Qalandarov obrazini konkretlashtirgan, individuallashtirish. Natijada, Qalandarov estetik jihatdan boy, turli-tuman xislatli, ko'p qirrali va to'laqonli xarakter – davr tipi – shiddatkor inson obrazi darajasiga ko'tarilgan. Mana shunday yetuk badiiy obrazlarga kitobxon xotirasida jonli kishidek (hayotydan uning o'zi aynan bordek) abadiy muhrlanib qoladi.

Ta'kidlash lozimki, agar obraz konkretlashtirilsa, individuallashtirilsa-yu, yetarli darajada umumlashtirilmasam u tipik bo'lmaydi – unda obraz notipik, kitobxon uchun zerikarli bir natura bo'lib qoladi. Shuningdek, obraz umumlashtirilgan bo'lsa-yu, ammo konkretlashtirilmagan bo'lsa – unda obraz mavhum, jonsiz kitobxonning esida saqlanib qolmaydigan sxemaga aylanib qoladi. Demak, adabiy asar qahramon faqat umumlashma sifatlarga ega emas, balki xamma jonli kishilardek tamomil konkret, individual sifatlarga ham ega bo'lar ekan. Xar bir to'laqonli obraz, ayni choqda, individual xarakterdir.

V) To'qima – badiiy obrazning muhim xususiyati.

Obraz hayotiy umumlashmalarni individual shaxs belgilarini inson hayotining konkret manzaralari orqali ifodalashni taqozo qilar ekan, bunday murakkab ijodiy jarayonni badiiy to'qimasiz, ijodiy fantaziyasiz qilish mumkin emas. Eng oddiy umumlashmada ham fantaziyaning bo'lakchalari bo'ladi. Umumlashtirish esa san'atning umumiy qonuniyati – umumlashmasiz hech qanday badiiy obraz yaratilmaydi. "Badiiy adabiyot, - deb yozgan edi M. Gorkiy, - hodisa va xarakterlarni tipiklashni, "o'ylab topish"ni, to'qimani talab etadi" (Русские писатели о литературном труде, т.4, М.1956, стр.59). Adabiyotda "badiiy to'qima qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi", - degan Aleksey Tolstoy. Lekin badiiy to'qimani shunday amalgam oshirish kerakki, undan o'quvchida chinakam turmush haqiqati degan taasurol qolsin. Yozuvchi badiiy to'qimasiz yashay olmaydi. Zotan, butun adabiyot badiiy to'qimalardan iborat, chunki turmush hodisalar zamon va makon ichida sochilib yotadi. Masalan, bir odamni olaylik: u odam o'zining mohiyatini, tabiatini ochib beradigan bir so'zni bugun aytsa, ikkinchisini bir haftadan, uchinchisini bir haftadan, uchinchisini esa bir yildan keyin aytishi va balki hech bir aytmay o'tib ketishi ham mumkin. Yozuvchi odamni ketma-ket so'zlatadi. Uning mohiyati va tabiati uchun xarakterli so'zlarning xammasini aytdiradi. Bu esa turmushni badiiy to'qimalar vositasida aks ettirish bo'ladi. Ammo

badiiy to'qimadagi hayot oddiy turmushdan ko'ra realroq va to'liqroqdir" (Русские писатели о литературном труде, т.4, стр.489). "Xalq orasida bunday tiplar juda ko'p deydi Abdulla Qodiriy ("O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" larning qahramonlari Otabek va Kumush, Ra'no va Anvar obrazlari xususida to'xtalib). Lekin, ularning xammasini ham asardagi kabi aynan deb bo'lmaydi. Shaxs, asardagi qahramonga qanchalik o'xshab ketmasin, bari bir unda qandaydir biron kamchilik, nuqson bo'ladi. Ba'zan kitobxon asarni berilib o'qiydida, undagi qahramonni o'z atrofidan izlab ko'radi: aynan shu o'xshashni olmagach, umidsizlanadi; umumlashtirilgan tiplar, deb xulosa chiqaradi. Yozuvchi esa, ko'plab shaxslarda ko'rgan-kuzatgan tiplardan o'ziga keragini tanlab oladi, umumlashtiradi, biron qahramonda mujassamlashtiradi. Biroq buning shartlari bor: tiplar yasama, sun'iy bo'lmasligi, xalq orasida bo'lmasa birovda ko'rilgan, tabiiy, mantiqqa to'g'ri keladigan, kitobxonni ishontiradigan bo'lishi shart. Yozuvchi Abdulla Qahhor "Hayot xodisasidan badiiy to'qimaga" degan maqolasida shunday deb yozadi: "Agar yozuvchilik turmushdan nusxa ko'chirishdan iborat bo'lsa, bundan oson ish bo'lmas edi. Hayotdan aynan ko'chirish, kitobdan ko'chirishday gap. Kopiya bo'lib qolaveradi. Bunday narsalardan originallik kutish behuda. Originallik hayot haqiqatini dildan o'tkazish, unga ko'ngildagi gaplarni singdirish, qo'shib ifodalash bilan yuzaga keladi".

Badiiy to'qima hayotiy fakt bilan qo'shilgan, uyg'unlashgan chog'dagina chinakam umumlashma – badiiy obraz vujudga keladi. Badiiy to'qima yozuvchining hayotga aktiv munosabati munosabati natijasida yuzaga keladi. Yozuvchi badiiy to'qima yordamida konkret odamlarda mavjud bo'lgan ijobiy yoki salbiy xislatlar va imkoniyatlarning xali ro'yobga chiqmaganlarini ham hayolan ro'yobga chiqarib tasvirlaydi, hayot faktini o'z ijodiy maqsadiga muvofiq ravishda rivojlantirib, o'zgartirib ko'rsatadi. Chunonchi, Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasida xuddu shu xolni ko'ramiz/

Yozuvchi Abdulla Qahhorning o'zi guvohlik berishicha, uning "Bemor" hikoyasi avtobiografik faktlar asosida yaratilgan (Asarda tasvirlangan voqea muallif oilasida, Yaypan qishlog'ida, 1913-yilda yuz bergan). Hikoyadagi kasalmand ayolini dalolatga olmay nochor ahvolda qolgan Sotiboldi – yozuvchining otasi Abduqahhor aka, og'ir kasal – muallifning to'lg'oq tutayotgan onasi, "xuduyo ayamdi daydiga davo beygin" deb duo qiladigan to'rt yoshli qizcha yosh Abdullaning o'zi (besh yoshlik paytlari). Biroq hikoyadagi voqea (badiiy haqiqat) hayotdagi voqea (hayot haqiqati) ning aynan o'zi emas: aslida to'lg'oq tutayotgan ona ko'z yorib, o'lim changalidan omon qoladi – hikoyada esa bemor qazo qiladi. Bu o'rinda turmush faktlarining o'zini aynan tasvirlash kifoya qilmas edi, insoning hayot-mamot holatini, uning nihoyatda og'ir turmush sharoitidagi nochor ahvolni, o'limga mahkum qilib qo'yilganini ko'rsatish talab qilinar edi. Men faktini qayta bichib tikkanimda hayot haqiqatiga qarshi ish qilayotibman deb sira o'ylagan emasman. Aksincha, hikoyada hayotni o'shanday ko'rsatib to'g'ri qilgan ekanman. Besh yasharligimda ayamdan yetim qolishim o'sha davr sharoitida xech gap emas ekan. Bu judolik natijasida yuz berishi

mumkin bo'lgan butun dahshatlarni va buning barcha oqibatlarini endi tushunib yetdim" deb yozgan Abdulla Qahhor.

Badiiy to'qimani uydurmadan, yolg'ondan farqlash kerak. Uydurma kitobxonni ishontirmaydi, unga hayot haqiqati to'g'risida soxta ma'lumotlar beradi. Badiiy to'qima esa yozuvchining hayotdan olgan haqqoniy taasurotlarga asoslanadi, uning samimiy xis-tuyg'ulari, teran fikrlari, o'ziga xos iste'dodi va maxorati bilan kitobxonning ma'naviy dunyosini boyitadi.

Konkret tarixiy shaxslarga bag'ishlangan adabiy asarlarda badiiy to'qima bir qadar kamroq ishlatiladi. Masalan, Alisher Navoiy haqidagi asarlarda, ko'pincha, Alisher Navoiy bilan Husayn Boyqaro o'rtasidagi murakkab munosabat qalamga olinadi. Bu tarixiy fakti o'zgartirib boshqacha qilib ko'rsatish mumkin emas. Ammo shu hayot faktining "Navoiy" romanida, "Alisher Navoiy" dramasida va "Alisher Navoiy" badiiy filmida qanday tasvirlangani qiyosan tahlil qilinsa, ularni yaratgan har bir ijodkor tarixiy haqiqatga sodiq bo'lgani xolda masalaga o'ziga xos yondashganini ko'ramiz. Bunday o'ziga xoslik asarlarning janr taqozosiga ko'ra badiiy to'qimadan foydalanish demakdir.

Badiiy to'qima hayot haqiqatiga zif bo'lmaydi, aksincha u ham o'z navbatida hayotni tipiklashtirib tasvirlash usuli sifatida qo'llaniladi. Yozuvchi ijodiy fantaziyaga, hayolga, badiiy to'qimaga qancha boy bo'lsa, u yaratgan obrazlar shu qadar haqqoniy, hayotiy, mukammal bo'ladi. Demak, badiiy to'qima qahramon obrazini yaratishda muhim ahamiyat kasb etarkan.

v) Estetik ta'sirchanlik (emotsionallik, jozibadorlik) – badiiy obrazning muhim xususiyati.

San'atning vazifasi, birinchidan, voqelikni estetik jihatdan o'zlashtirish va ikkinchidan kitobxonda estetik xissiyot (emotsiya) uyg'otishdan iborat. San'atkor go'zallik qonuniyati asosida ijod qiladi. Shunga ko'ra, san'atning vazifasi – go'zallikni targ'ib qilish, uning predmeti – inson esa ba'zan go'zallik va ba'zan xunuklik ifodachisi bo'lishi mumkin. Badiiy obraz kitobxonda albatta qandaydir estetik xissiyot (emotsiya) uyg'otishi kerak. Chunonchi, hayotdagi xunuklikni aks ettirgan badiiy obraz kitobxonda nafrat uyg'otsa, go'zallikni ifodalagan badiiy obraz o'quvchida estetik zavq-shavq uyg'otadi. Yozuvchi badiiy obraz orqali estetik idealni ifodalaydi: ideal ijobiy obrazda bevosita va salbiy obrazda bilvosita ifodalanadi. Yozuvchi xar bir obrazni extiros bilan tasvirleydi, unga aktiv munosabatda bo'ladi. Ijodkor eng oddiy narsa ustida ishlayotgan bo'lsa ham, boringki chipta kovush to'qiyotgan bo'lsa ham, bu ishga qalbini qo'shadi. Hunarmand shu ishga qalbini qo'sha olsa, juda ulug' san'atkor bo'la oladi va san'atkor faqat bo'yoqlarni chaplab bersa-yu, ishga qalbini qo'shmasa, hunarmand bolib qolishi mumkin. Shunga ko'ra, u yoki bu asarni o'qiganimizda biz ham badiiy obrazning faoliyatiga befarq qaray olmaymiz: ulardan yo ilhomlanamiz, zavqlanamiz yoki faxrlanamiz, o'rnak olamiz yoki nafratlanamiz, g'azablanamiz, jirkanamiz va hayotdagi shunday kishilarga qarshi kurashga axd qilamiz. Chunonchi, Sadridin Ayniyning "Sutxo'ning o'limi" qissasidagi Qori Ishkambaning har bir xatti-harakati bizda nafrat uyg'otsa, Oybekning "Qutlug' qon" romanidagi xatti-harakatlaridan faxrlanamiz, unga qoyil qolamiz.

Prof.L.I.Timofeev “Aadabiyot nazariyasi asoslari” nomli darsligida obrazlarning ta’sirchanligiga san’at tarixidan quyidagi ajoyib misollarni keltiradi:fransuz san’atshunosi Ippolit Ten (1828-1893) ning hikoya qilishicha,amerikalik oddiy soldat teatrga tushib “Otello” spektakilini qiladi.